

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI HAR TOMONLAMA BARKAMOL ETIB TARBIYALASHDA TABIATNING O'RNI HAQIDAGI SHARQ VA G'ARB OLIMLARINING FIKRLARI

Turdiyev Azamat G'ayratovich

Termiz davlat pedagogika instituti Maktabgacha ta'lim metodikasi kafedrasida o'qituvchisi

Kalit so'zlar: *bola, tabiat, model, didaktik, imkoniyat, ta'lim, metod.*

Key words: *child, nature, model, didactic, opportunity, education, method.*

Ключевые слова: *ребенок, природа, модель, дидактика, возможность, образование, метод.*

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tabiat bilan tanishtirish orqali tarbiyalanuvchilarda aqliy, etetik, axloqiy, ekologik jihatdan tarbiyalash, jismoniy rivojlantirish bir so'z bilan aytganda barcha tarbiya turlarini rivojlantirish mumkin. Bu mavzu hamma zamonlarda ham o'ta dolzarb muammolardan hisoblangan. Tabiat bilan tanishish insonni ma'naviy kamolotga yetkazuvchi jarayon sanalib, uning natijasida insonning xulqiy go'zalligi, estetik didi ortadi. Inson ilk bolalik yillaridan atrofdagi dunyo, jonli va jonsiz tabiat haqidagi juda kichik elementar bilimlarni oladi shu tariqa tabiatga atrof olamga bo'lgan qiziqish ortadi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida olib borilayotgan ta'lim dasturlarida ham bu o'z aksini topgan va qonun hujjatlari bilan mustahkamlab qo'yilgan. "Ilk qadam" davlat o'quv dasturida ilk yoshdagi bolalarga tabiat orqali ta'lim va tarbiya berish reja asosida ko'rsatib berilgan. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tabiat bilan tanishtirish "Fan va tabiatshunoslik asoslari /ekologiya" faoliyati tarkibida hamda ilm-fan tabiat burchaklari, sayrlar, navbatchilikda amalga oshiriladi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida hafta hamda oy mavzulari ham tabiat undagi o'zgarishlar, yil fasllariga monand tarzda tuziladi. Tarbiyachilar oldida turgan asosiy vazifa bolalarni tabiat va insonga, ular atrofidagi narsalar va narsalar dunyosiga qimmatli, insonparvar munosabatda bo'lish ruhida tarbiyalash, mazmunli istak va qobiliyatni rivojlantirishdir. Bola tabiatni bevosita, sezgilar yordamida idrok etadi. Shuning uchun u uning oldida shakl, o'leham, rang, tovush, hid, harakatning xilma-xilligida namoyon bo'ladi. Bu uning hissiy rivojlanishini yaxshilaydi va unga tabiat haqidagi dastlabki yorqin, aniq g'oyalarni shakllantirishga, tabiat hodisalarining aloqalarini ko'rish va tushunishga, aloqa va munosabatlarni tushunishga imkon beradi. Tabiatda kuzatish, o'ynash, ishlash jarayonida bolalar nafaqat ob'ektlar va tabiat hodisalarining xususiyatlari va fazilatlarini bilan tanishadilar, balki ularda bolalarning faolligi rivojlanadi. Bundan tashqari, tabiatdagi mehnat - bolalar mehnatining eng qulay turi - bolaning shaxsiyatini shakllantirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Insonlar paydo bo'lib jamiyat bo'lib shakllanishining ilk davrlardayoq tabiat bilan inson birligi masalasi chuqur anglangan, insonlar faoliyati bevosita tabiat bilan aloqadorlik va o'zaro bog'liqlikda anglanilgan. Qadimdan odamlar o'zlarini tabiat bilan doimo birlikda tasavvur etganlar va uni muqaddas, ilohiy kuchga ega deb hisoblashgan. Mazkur yondashuv diniy marosimlar, shuningdek, xalq og'zaki ijodi namunalari - afsona, ertak, topishmoq, maqol,

doston, she'r va qo'shiqlarda ham o'z ifodasini topgan. Tabiat va atrof-muhitni muhofaza qilish negizida ma'naviy- axloqiy me'yorlar mavjud bo'lib, ularga doimiy ravishda qat'iyat bilan va og'ishmay amal qilish nafaqat tabiiy biotsenozni aslidek saqlab qolishga imkon beribgina qolmay, balki insoniyat hayoti havfsizligi va salomatligini ta'minlashning muhim sharti ham sanaladi. Shuning uchun, necha yillardan buyon tabiat va inson munosabatlari, uning oqilona bo'lishiga erishishga e'tibor berib kelingan. Atrof-muhitga oid mavjud manbalar bilan tanishish tabiat va atrof-muhitga mas'uliyatli yondashish masalalari juda qadimdan o'rganilib kelinganligiga bugungi kunda ishonch hosil qilinadi.

Ilmiy asarlarni o'rganish hamda ularda ilgari surilgan fikrlarga tayangan holda ta'limning tarixiylik xususiyatiga egaligi yuzasidan ayrim mulohazalarni bildirish maqsadga muvofiqdir. Xalq merosi na'munalarining aksariyatida tabiatni e'zozlash, hayvonot va o'simliklar dunyosini asrash haqidagi g'oyalari yetakchi mavzu qilib olingan. Jumladan, xalq hikmatlarida ham tabiat va atrof-muhitga to'g'ri munosabatda bo'lish talabi o'z ifodasini topgan. Masalan "Suvga tupurma!", "Quduqqa tosh tashlama!", "Suvga mag'zava oqizma!", "Yerni tepma!", "Nonni tashlama - uvol bo'ladi!", "Qushlarni o'ldirma, qarg'aydi!", "Idishda ovqat qoldirma, savob bo'ladi!" kabi.

Qadimgi muqaddas qo'lyozma sanalgan "Avesto" xalqimizning bebaho mulki sanalib bugungu kunga qadar ham dono fikrlari bilan qadri hisoblanadi. Bu eng qadimiy meros sanalgan kitob bundan o'ttiz asr muqaddam shu zaminda yashab o'tgan buyuk ajdodlarimizning biz kelajak avlodlarga qoldirgan ma'naviy tarixiy muhim yodgorligidir. Zardushtiyluk dinining muqaddas kitobi "Avesto" da inson va tabiat munosabatlariga juda keng o'rin ajratilgan hisoblanib, ayni o'rinda bu asarda geografik ma'lumotlar ham yoritilgan. Xususan, Markaziy Osiyo hududidan oqib o'tuvchi ikki yirik daryo - Amudaryo va Sirdaryo, ikki daryo o'rtasidagi joylarning havosi, tabiati, tabiiy boyliklari, o'simliklari va boy hayvonot dunyosi, insonlarning tabiatga bo'lgan munosabatlari haqida ma'lumotlar berilgan. Asarda ekologik masalalar umumiy tarzda «Inson butun umri davomida suv, tuproq, olov, umuman, dunyodagi jamiki yaxshi narsalami pok va bus-butun asrashga burchlidir» degan g'oya negizida yoritiladi. Manbada, shuningdek, yer, suv, zamin, xona, badan, kiyim-kechak, oziq-ovqatlarni toza tutish va saqlashga alohida e'tibor berilgan. "Avesto"da qabristonlarni shahar va qishloqlardan yiroqda tashkil etish, uni o'rab qo'yish, maxsus tozalikka rioya qilish, murda tekkan libos, yerlarni qatron qilish xususida fikrlar mavjud. Inson yoki hayvon o'ligi tushgan suv inshoatlarini bir necha marta tozalash (suvga to'ldirib bo'shatish) ta'kidlanadi. Shuningdek, tuproqning tozaligini buzgan va uni asrash qoidalarini mensimagan shaxslar "400 qamchi bilan urish jazosi"ga giriftor qilingan. "Avesto" da muhit tozaligini saqlash va kasalliklarning oldini olish vositalari sifatida quyidagilar ta'kidlangan:

1. Axlatlarni berkitish, ifloslangan joylarni tuproq, tosh, kul bilan ko'mib tashlash.
2. Otash va sovuqlik bilan ofat va balolarni yo'qotish.
3. Kul, sirka, sharob, turli g'iyohlar (isfand, mixsak, sadaf, piyoz, sandal) tutatish.

Asarda turli kasalliklarning qushlar, hayvonlar va parrandalar orqali tarqalishi va ularning zararli oqibatlariga olib kelishi ham qayd etiladi. Biroq, kasallik tarqatadigan hayvon va hashoratlarni yo'qotish maqsadga muvofiqligi bilan birga uy hayvonlarini ehtiyot qilish zarurli aytiladi. "Avesto", ayni zamonda, bu qadim o'lkada buyuk davlat, yuksak ma'naviyat va

madaniyat bo'lganligidan guvohlik beruvchi tarixiy hujjatdir. "Avesto" tabiat, jamiyat va inson o'rtasidagi munosabatlarini ma'naviy, ruhiy va axloqiy mezonlar orqali uyg'unlashtiruvchi, kishini qurshab olgan olamni o'rganishga chorlaguvchi falsafadir. "Avesto"da noyob dorivor giyohlar haqida qimmatli ma'lumotlar mavjud. Bundan tashqari, uy-joy, atrof-muhit, tabiatni muhofaza qilish, uni asrash to'g'risida tavsiyalar berilgan. "Avesto"da yer, suv, xona, inson tana a'zolari, kiyim-kechaklarni toza tutish haqida yozilgan. Atrof-muhit, ko'chalar, butazorlaru o'tloqlarni, yerni iflos qilgan kishilar jazolanganlar. Shuningdek, muhit tozaligini saqlash va kasalliklarni oldini olish maqsadida axlatlarni, ifloslangan joylarni tosh, tuproq, qum bilan ko'mib tashlash buyurilgan. Asarda kasallik tarqatuvchi hasharotlami yo'qotish, shuningdek, uy hayvonlarini to'g'ri parvarish qilish yo'llari ham ko'rsatilgan.

O'rta Osiyoning buyuk mutafakkir olimlaridan Muhammad al-Xorazmiy hayoti davomida juda ko'plab asarlarni yozib katta meros qoldirgan. Uning "Kitob sur'at al-arz" nomli asarida dunyo okeanlari, quruqlikdagi qit'alar, qutblar, ekvatorlar, cho'llar, tog'lar, daryo va dengizlar, ko'llar va o'rmonlar, ulardagi o'simlik, hayvonot dunyosi, shuningdek, yerning asosiy boyliklari hamda boshqa tabiiy resurslar, aholisi, urf-odatlar, ijtimoiy faoliyatlari, zichligi va boshqa muhim ma'lumotlar keltirilgan bo'lib eng qimmatli va nodir asarlar sirasiga kiradi. Asarda bir necha izohlar, haritalar mavjud bo'lib, Orol dengizining tasviri ham berilgan. Bundan tashqari 637 ta muhim joylar, 209 ta tog'ning geografik tafsilotlari o'z aksini topgan. Olim tomonidan daryo suvlari qurib, ifloslanib, inson boshiga turli falokatlar yog'ishi mumkinligi ta'kidlangan. "Bilingki, daryoning ko'zlari yoshlansa, uning boshiga g'am, kulfat tushgan" bo'ladi.

Tabiatshunoslikning turli tarmoqlari bilan shug'ullangan mutafakkir olimlardan biri bu Abu nasr Forobiy bo'lib hisoblanadi. Uning "Kitob al-hajm va al-minor", "Kitob al-mabodi al-insonia" ("Insoniyatning boshlanishi haqida kitob"), "Kitob al-a'zo al-hayvon" ("Hayvon a'zolari to'g'risida kitob") nomli asarlari dunyoga mashhur asarlar sirasiga kiradi. Tabiatshunoslikka oid "Odam a'zolarining tuzilishi", "Hayvon a'zolari va ularning vazifalari haqida" kabi asarlarida odam va hayvonlardagi ayrim a'zolaming tuzilishi, xususiyatlari va vazifalari haqida ham to'xtalib o'tilgan. Odam a'zolarining tuzilishi va vazifalari haqida so'z yuritilganda o'zgarishlar, ya'ni kasalliklar birinchi navbatda ovqatlanish tartibining buzilishi oqibatida kelib chiqadi, deb tushuntiriladi.

Abu Rayhon Beruniy koinotdagi hodisalarni taraqqiyot qonunlari, narsa va hodisalarning o'zaro ta'siri bilan tushuntirishga urinadi. Olim yerdagi ba'zi hodisalarni quyoshning ta'siri orqali izohlaydi. Beruniyning fikricha, yerdagi o'simlik va hayvonot olamining yashashi uchun zarur imkoniyatlar cheklangan. Lekin o'simlik va hayvonlar doimo kupayishga intiladi va shu maqsadda kurashadi. Beruniyning tabiatshunos sifatida quyidagicha fikrlari hanuzgacha o'z dolzarbligini yo'qotmagan: "Ekin va nasi qoldirish bilan dunyo to'lib boraveradi. Garchi dunyo cheklangan bo'lsada, kunlar o'tishi bilan bu ikki o'sish natijasida ko'payish cheklanmaydi.

Agar o'simliklardan yoki jonivorlardan biror xilining o'sishiga sharoit bo'lmay, o'sishdan to'xtasa ham, boshqalarida bu ahvol bo'lmaydi. Ular birdaniga paydo bo'lib, birdaniga yo'qolib ketmaydi. Bordi-yu, yer yuzini bir xil daraxt yoki bir xil hayvon butunlay qoplab olsa, bu holda hayvonning ko'payishiga ham, daraxtning o'sishiga ham o'rin qolmaydi.

Shu sababdan dehqonlar ekinlarni o‘toq qilib, keraksizini yulib tashlaydilar”. Beruniy asarlarida o‘simlik va hayvonlarning biologik xususiyatlari, ularning tarqalishi va ho‘jalikdagi ahamiyati haqida ma‘lumotlar topish mumkin. Beruniyning ilmiy qarashlari, asosan, “Saydana”, “Mineralogiya”, “Qadimgi avlodlardan qolgan yodgorliklar” asarlarida o‘z aksini topgan. Unda Eronning turli tropik o‘simlik va hayvonlarining tashqi muhit bilan aloqasi, ularning xulq-atvori yil fasllarining o‘zgarishi bilan bog‘liqligi misollar bilan tushuntirilgan. “Agar hayvonlarda sezgilar oziq topishi va o‘z-o‘zini himoya qilish uchun yaratilgan bo‘lsa, odam zoti hayvonot dunyosini juda ortda qoldirib ketgan, chunki unga xudoning yerdagi noibi bo‘lish, uni obod qilish va uyda targ‘ibotni amalga oshirish topshirilgan” Beruniy yer yuzining o‘zgarishi o‘simlik va hayvonot dunyosining o‘zgarishi bilan, tirik organizmlarning turli hayoti yer tarixi bilan bog‘liq bo‘lishi kerak, deb hisoblaydi. Qumni kavlab, uning orasidan chig‘anoqni topish mumkin.

Buning sababi, bu qumlar qachonlardir okean tubi bo‘lgan, deb ta’kidlaydi alloma. Beruniy “Saydana” degan asarida 1116 xil dori- darmonlarni tavsiflagan. Ularning 750 tasi turli o‘simliklardan, 101 tasi hayvonlardan, 107 tasi esa minerallardan olinadi. Beruniyning “Qadimgi avlodlardan qolgan yodgorliklar” va “Hindiston” asarlarida o‘simlik va hayvonlarning tuzilishi hamda ularning tashqi muhit bilan o‘zaro aloqasi haqida ham qiziqarli ma‘lumotlar keltirilgan. Beruniy o‘zining tabiiy-ilmiy kuzatishlari, tajribalari asosida tabiatdagi hodisalar ma‘lum tabiiy qonuniyatlar asosida boshqariladi, ularni tashqaridan ta’sir etuvchi har qanday kuch o‘zgartirish qobiliyatiga ega emas, degan xulosaga keladi. Yirik qomusiy olim sifatida tanilgan Abu Ali ibn Sinoning 450 ta asari mavjud bo‘lib, bizgacha 240 tasi yetib kelgan. Ibn Sino asarlari orasida «Tib qonunlari» tibbiyot ilmining shox asari, o‘rta asr tibbiyot ilmi tarqalishining oliy cho‘qqisi bo‘lib hisoblanadi. Ibn Sinoning falsafiy va tibbiy ilmiy qarashlari uning jaxonga mashhur “Kitob ash-shifo”, ya’ni “Davolash kitobi” asarida bayon etilgan, Bu asarda materiya, fazo, vaqt, shakl, harakat, borliq kabi falsafiy tushunchalar, shuningdek, matematika, kimyo, botanika, ekologiya, geologiya, astronomiya, psixologiya kabi fanlar haqida fikrlar bayon etilgan. Abu Ali ibn Sino tomonidan yaratilgan asarlarning 80 dan ortig‘i tabiat va insonning unga bo‘lgan munosabati masalasiga bag‘ishlangan bo‘lib, ularda tabiiy muhitning inson salomatligi va hayotidagi ahamiyati, tabiiy jarayonlarning kechishi, inson salomatligini saqlash shartlari, turli kasalliklarni keltirib chikaruvchi geoekologik omillar - suv, yer va havoning tozaligi, yashash muhitining holati (turar-joylarning keng yoki tor bo‘lishi), sanitariya va gigiena qoidalariga amal qilmaslik, turli yuqumli kasalliklar (moxov, chechak, vabo isitmasi, yiring, toshma kabilar)ning paydo bo‘lishi va tarqalishida muhit, xususan, yashash joylarining muhim o‘rin tutishi kabi qimmatli ma‘lumotlar beriladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Rayimov B. U. MECHANISMS OF FORMATION OF ETHNO-PEDAGOGICAL VALUES IN STUDENTS OF PEDAGOGICAL HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS //Educational Research in Universal Sciences. – 2023. – T. 2. – №. 6. – S. 337-341.

2. qizi Tursunova R. R. MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTIDA BOLALARNI TABIAT BILAN TANISHTIRISH ORQALI TARBIYALASH //Analysis of world scientific views International Scientific Journal. – 2023. – Т. 1. – №. 6. – S. 48-50.

3. Inadullayeva S. Q. MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA TURLI YOSHDAGI BOLALARNING IJODIY QOBILİYATLARINI SHAKLLANTIRISHDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH //Analysis of world scientific views International Scientific Journal. – 2023. – Т. 1. – №. 6. – С. 43-47.

4. Erkinovna U. S. ADVANCED FOREIGN EXPERIENCES IN PRESCHOOL EDUCATION //Spectrum Journal of Innovation, Reforms and Development. – 2022. – Т. 6. – С. 72-75.

5.TA G'ayratovich MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA MEDIAVOSITALARDAN FOYDALANISH METODIKASINI SHAKLLANTIRISH// INNOVATION IN THE MODERN EDUCATION SYSTEM 3 (35), 239-242

6. TA G'ayratovich MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA MULTIMEDIADAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI //INNOVATION IN THE MODERN EDUCATION SYSTEM 3 (29), 132-136

7. Maktabga tayyorlov guruhi bolalariini maktab ta'limiga tayyorgarligini shakllantirishning mazmuni, pedagogik-psixologik talablari.GU Xolboyeva - Academic research in educational sciences, 2022.

8.O'ktam qizi Mamatqulova S., Nurboyeva D. PEDAGOGLARNING PSIXOLOGIK-PEDAGOGIK KOMPETENTLIGINI SHAKILLANTIRISHNING NAZARIY JIHATLARI //“TRENDS OF MODERN SCIENCE AND PRACTICE”. – 2023. – Т. 1. – №. 5. – С. 45-54

9.Uralovich R. B. EDUCATION AND TRAINING BASED ON ETHNO-PEDAGOGICAL VALUES IN PEDAGOGICAL EDUCATIONAL INSTITUTIONS //Novosti obrazovaniya: issledovaniye v XXI veke. – 2022. – Т. 1. – №. 5. – S. 387-389.

10. Uralovich R. B. THE ROLE OF ETHNOPEDAGOGICAL VALUES IN HUMAN LIFE IN THE VIEWS OF EASTERN THINKERS //Novosti obrazovaniya: issledovaniye v XXI veke. – 2022. – Т. 1. – №. 5. – S. 390-394

11. DG Dusiyarovna, TA Gayratovich ADVANTAGES OF USING MODERN INFORMATION TECHNOLOGIES IN PRIMARY SCHOOLS // Archive of Conferences, 32-35

12. ГД Дурманова, АФ Турдиев, МП Аллахонова КИЧИК МАКТАБ ЁШДАГИ БОЛАЛАР БИЛИШ ЖАРАЁНЛАРИНИНГ РИВОЖЛАНИШИ // Central Asian Academic Journal of Scientific Research 1 (1), 221-228